
DAVRA SUHBATIDA YANGI QABUL QILINGAN FARMON VA QONUNLARNING MAZMUN-MOHİYATI HAM TUSHUNTIRILDI



Jinoyat ishlari bo'yicha Qo'shtepa tuman sudining raisi A.Ergashev tomonidan tuman Xalq ta'limi bo'limida "Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha 2021-2022 yillarga mo'ljallangan davlat dasturi ijrosi" mavzusida hamda "Chaqaloq savdosiga qarshi kurashish" faoliyatini yanada jonlantirish mavzularida shuningdek, Prezidentimizning 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli farmoni ijrosiga bag'ishlangan davra suhbatlari o'tkazildi. Davra suhbatlari davomida JIB Qo'shtepa tuman sudining raisi A.Ergashev Xalq ta'limi bo'limi xodimlariga korruptsiya jinoyatini, odam savdosi jinoyatining bir ko'rinishi bo'lgan, biroq undanda xavfli va achinarli jinoyat chaqaloq savdosi ekanligini, jinoyat qonunchiligida bunday jinoyat uchun ham qat'iy jazo choralari belgilanganligini va bunday jinoyatlarga qarshi kurashish lozimligini aytib o'tdi.



Bundan tashqari, yig'ilganlarga respublikamizda yangi qabul qilingan farmon va qonunlarning mazmun-mohiyati tushuntirildi.

[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)

[Facebook](#),

2022-09-30 19:15:51